

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash  
vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik  
osoyishtalik va jamoat salomatligi  
qo'mitasining 2024-yil 25-iyuldagi 14-son  
qaroriga  
ILOVA

**Qon bilan ishlash xizmati tashkilotlariga qo'yiladigan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena  
normativlari (0073-24-son SanQvaN)**

Mazkur sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari (bundan buyon matnda sanitariya qoidalari deb yuritiladi) qon bilan ishlash xizmati tashkilotlarining joylashuviga, ulardagi laboratoriyalar, bo'limlar va xonalarga, ularning sanitariya-gigiyena holatiga, donor qonini qayta ishlashga, shuningdek xodimlarning shaxsiy gigiyenasiga oid talablarni belgilaydi.

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur sanitariya qoidalarida quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

**donor** – o'z qoni va uning tarkibiy qismlaridan bir qismini tibbiyot ehtiyojlari uchun ixtiyoriy ravishda beruvchi jismoniy shaxs;

**donor qoni** – qon tomirlarda aylanib yuradigan suyuq to'qima;

**donor qoni tarkibiy qismlari** — qonning qon plazmasi va hujayralari shaklidagi tarkibiy qismlari;

**mobil guruh** – joylarga chiqqan holda donorlardan qon qabul qilib olish bilan shug'ullanuvchi guruh;

**immunoferment (IFA/IXLA)** – antigenning antitanachalar bilan immun reaksiyalariga asoslangan laboratoriya tekshiruvlari;

**polimer zanjir reaksiyasi (PZR)** – polimeraza zanjir reaksiyasi usuli bilan gemotransmissiv infeksiyalarni tekshirish;

**qon bilan ishlash xizmati tashkilotlari** – donor qoni va uning tarkibiy qismlarini to'plashga, tayyorlashga, qayta ishlashga va saqlashga ixtisoslashtirilgan tibbiyot tashkilotlari hamda donor qoni va uning tarkibiy qismlaridan farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan farmatsevtika tashkilotlari.

**2-bob. Qon bilan ishlash xizmati tashkilotlarining joylashuviga qo'yiladigan  
sanitariya-gigiyena talablari**

2. Qon bilan ishlash xizmati tashkilotlarining binolari boshqa binolardan alohida joylashtirilishi va mazkur binolardan faqat qon bilan ishlash maqsadida foydalanilishi kerak.

3. Qon bilan ishlash xizmati tashkilotlarida donor qoni va uning tarkibiy qismlarini to'plash, tayyorlash, qayta ishlash va saqlash uchun maxsus hududlar va yetarli xonalar bo'lishi kerak.

4. Qon bilan ishlash xizmati tashkilotlari donor qoni va uning tarkibiy qismlarini to'plash, tayyorlash, qayta ishlash va saqlash uchun yopiq tizimni ta'minlovchi gemakonteynerlarga ega bo'lishi kerak.

5. Qon bilan ishlash xizmati tashkilotlarining joylashuvi "O'zbekiston Respublikasidagi aholi turar joylarining atmosfera havosini muhofaza qilish bo'yicha sanitariya normalari va qoidalari" 0350-17-son SanQvaNga asosan belgilanishi kerak.

### **3-bob. Qon bilan ishlash xizmati tashkilotlarining laboratoriyalariga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablari**

6. Qon bilan ishlash xizmati tashkilotlarining gemotransmissiv infeksiyalar diagnostik laboratoriyasi alohida binoda, mazkur tashkilotlar binosining alohida qavatida yoki qismida joylashgan bo'lishi va alohida kirish joyiga ega bo'lishi kerak.

7. Gemotransmissiv infeksiyalar diagnostik laboratoriyasida "toza" va "zararli" hududlar bo'lishi, bunda mazkur hududlardagi potensial patogen materiallarning harakatlanish ketma-ketligiga rioya qilinishi lozim.

8. "Toza" hududda kiyinish, ovqatlanish va dam olish uchun xona, laborantlar va shifokorlar xonasi, omborxona, yuvinish xonasi va hojatxona bo'lishi kerak.

9. "Zararli" hududda tekshiruvga keltirilgan potensial patogen materiallarni qabul qilish, saralash va ro'yxatga olish xonasi, serologik va boshqa tekshiruvlar uchun ishlatilgan materiallarni dezinfeksiya qilish, yuvish xonalari, shuningdek tekshirilgan materiallarni zararsizlantirish uchun avtoklav xonasi bo'lishi lozim.

10. Gemotransmissiv infeksiyalar diagnostik laboratoriyasida immunoferment (IFA/IXLA) va polimer zanjir reaksiyasi (PZR) tahlillari alohida xonalarda amalga oshirilishi va bir-biri bilan kesishmasligi zarur.

11. Polimer zanjir reaksiyasi (PZR) hududida tahlil o'tkazish ketma-ketligiga mos ravishda xonalar joylashtirilishi va bu xonalarning har birida boksdan oldingi xona bo'lishi, bunda boksdan oldingi xonalar ustki va oyoq kiyim almashtirish uchun mo'ljallangan bo'lishi lozim.

12. Qon bilan ishlash xizmati tashkilotlarining barcha laboratoriyalari oqava suv, kanalizatsiya, elektr quvvati, issiq suv, tabiiy gaz bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

13. Barcha laboratoriya xonalarining yoritilishi QMQ 2.01.05-2019 "Tabiiy va sun'iy yoritish" ga muvofiq bo'lishi kerak.

14. Barcha laboratoriya xonalarida havo harorati +18+240C bo'lishi kerak.

15. Barcha laboratoriya xonalarining devor yuzalari yuvish uchun qulay bo'lishi kerak.

16. Qon bilan ishlash xizmati tashkilotlarining laboratoriyalari tarkibi va maydonlari mazkur sanitariya qoidalarining 1-ilovasiga muvofiq bo'lishi kerak.

### **4-bob. Qon bilan ishlash xizmati tashkilotlarining bo'limlariga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablari**

17. Qon bilan ishlash xizmati tashkilotlarining donorlar bo'limi donorni ro'yxatga olish va tibbiy

savolnoma to'ldirish xonasi, qon olish zali, yordamchi funksional xonalar va xodimlar xonalaridan iborat bo'lishi kerak.

18. Donor bo'limi kamida 4 ta to'liq qon tayyorlash joyining masshtab o'lchamini o'z ichiga olishi lozim.

19. Donor bo'limining maydoni to'liq qon tayyorlash rejasini bajarish uchun kamida 4 ta donorlar kreslosi va plazmaferez o'tkazish uchun donorlik kreslosi soniga mos bo'lishi kerak.

20. Donor qonini qayta ishlash va donor qoni tarkibiy qismlarini tayyorlash bo'limida qon tarkibiy qismlari berilishdan oldin tekshirilishi lozim.

21. Donor qoni tarkibiy qismlari tahlil natijalariga ko'ra transfuziya uchun yaroqli bo'lgan tarkibiy qismlarga hamda quyish uchun yaroqsiz tarkibiy qismlarga ajratilishi kerak.

Bunda, nisbiy yaroqsiz deb topilgan tarkibiy qismlari dori vositalari, maxsus zardoblar ishlab chiqarish uchun qo'llaniladi, tarkibiy qismlari taqsimlanmaydigan (foydalanishga yaroqsiz) tarkibiy qismlari esa chiqindi sifatida utilizatsiya qilinadi.

22. Birlamchi qayta ishlangan donor qoni va uning tarkibiy qismlari pasportizatsiyadan va ajratishdan oldin karantin hududiga joylashtirilishi kerak.

23. Turli xildagi donor qoni tarkibiy qismlari uchun tegishli haroratli ( $+2^{\circ}\text{C}$  dan  $+8^{\circ}\text{C}$  gacha,  $+20^{\circ}\text{C}$  dan  $+24^{\circ}\text{C}$  gacha,  $-25^{\circ}\text{C}$  yoki undan past) uchta shartli ajratilgan turli saqlash moslamalari bo'lishi kerak.

24. Taqsimlangan tarkibiy qismlarning ba'zilar (qon va plazma) qayta ishlashdan keyin toza hududga o'tkazilishi kerak.

25. Toza hudud donor qonini umumiy qayta ishlash hududidan ajratilgan va mazkur hududga kirishga cheklov o'rnatilgan bo'lishi kerak.

26. Eritrositlarni yuvish, kriopresipitat tayyorlash, eritrositlarni eritish eritrositlarni tarqatish maydoniga yaqin joyda amalga oshirilishi kerak.

27. Nurlantirish xonasiga qo'yiladigan talablar "Radiatsiya xavfsizligi normalari va radiatsiya xavfsizligini ta'minlashning asosiy qoidalari" 0193-06-sonli SanQvaNga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

28. Material, eritmalarni tayyorlash va sterillash bo'limi alohida binoda yoki qon bilan ishlash xizmati tashkilotlarining binosining alohida qismida joylashgan bo'lishi va alohida kirish joyiga ega bo'lishi kerak.

29. Material, eritmalarni tayyorlash va sterillash bo'limida materiallarning harakatlanish ketma-ketligiga (qabulxona, yuvish xonasi, qadoqlash, avtoklavlash, tarqatish xonasi) qat'iy rioya qilinishi shart.

30. Qadoqlash va avtoklavlash xonalarida kvars lampalar qo'llanilishi lozim.

31. Material, eritmalarni tayyorlash va sterillash bo'limi oqava suv, kanalizatsiya, elektr quvvati, issiq suv bilan ta'minlangan bo'lishi, devor yuzalari yuvish uchun mo'ljallangan bo'lishi kerak.

32. Donor qoni va uning tarkibiy qismlaridan preparatlar tayyorlash bo'limi alohida binoda yoki qon bilan ishlash xizmati tashkilotlari binosining alohida qismida joylashgan bo'lishi hamda alohida kirish joyiga ega bo'lish kerak.

33. Mobil guruh xonalarida termokonteynerlar, termo elementlar, kompyuterlar, hujjatlar va boshqa qo'shimcha narsalar uchun yetarli joy ajratilgan bo'lishi kerak.

34. Mobil guruh tomonidan olingan donor qoni namuna probirkalari darhol laboratoriyalarga, donor qoni esa qonni qayta ishlash bo'limiga topshirilishi lozim.

35. Yig'ilgan donor qonini qabul qilish bo'limida mobil guruh yordamida to'plangan donor qonlari va donor qon namuna probirkalari qabul qilinishi va ro'yxatga olinishi, bunda probirkalar yig'ilishi va muntazam ravishda laboratoriyalarga topshirilishi lozim.

Mazkur bo'limga begonalarning kirishi taqiqlanadi.

### **5-bob. Qon bilan ishlash xizmati tashkilotlarining xonalariga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablari**

36. Funksional xonalarining (donor qonini yig'ish zali, sentrifuga xonasi, qon mahsulotlarini saqlash va berish zalining) devori oq bo'yoq bilan bo'yalgan, yuvilishi va dezinfeksiyalanishi oson, pollar linoleum yoki kafel va plintus bilan qoplangan bo'lishi kerak.

37. Binoning vivariy qismida karantin xonasi, sichqonlar saqlanadigan xona, quyonlar saqlanadigan xona, laboratoriya hayvonlarining operatsiyadan oldingi xonasi, laboratoriya hayvonlarining operatsiya xonasi, o'lgan laborator hayvonlarni saqlash xonasi, hojatxona va dushxona joylashishi hamda ularning devorlari va poli kafel qilingan, shifti yuvish uchun oson bo'yoqda bo'yalgan bo'lishi kerak.

Ushbu xonalarda stok (ariqcha), yuvish vannalari, havo tortgich bo'lishi shart.

38. Vestibyul poli mexanik bosimga chidamli bo'lishi kerak.

39. Donor qonini qayta ishlash va donor qoni tarkibiy qismlarini tayyorlash bo'limining barcha xonalari quyidagi talablarga javob berishi lozim:

devorlar shift balandligigacha yuvish va dezinfeksiya qilishga qulay bo'lgan bo'yoq bilan bo'yalishi;

devorlar va shiftlar silliq, suv o'tkazmaydigan va shikastlanmagan bo'lishi;

pollar linoleum va yassi plintuslar bilan qoplangan hamda issiqlik izolyatsiyasi xususiyatlariga ega bo'lishi;

yuzalar tozalash va dezinfeksiya qilish uchun chidamli bo'lishi;

Bunda, yog'och sirtli pollarga ruxsat berilmaydi.

40. Kompyuter xonalari shiftlari va devorlari yong'inga chidamli bo'lishi, pollar linoleum qilingan bo'lishi kerak.

41. Barcha xonalarda konditsioner va havo ventilyatsiyasi bo'lishi hamda xonalar yetarli darajada yoritilgan bo'lishi lozim.

### **6-bob. Qon bilan ishlash xizmati tashkilotlarida donor qonini qayta ishlashga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablari**

42. Karton yoki bo'yalmagan yog'ochdan tayyorlangan qonni qadoqlash materiallari qon tayyorlash hamda qayta ishlash hududidan tashqarida ochilishi kerak.

43. Turli xil sarf-materiallari va qon tayyorlanadigan qopchalar, qadoqlash materiallari, foydalanishga tayyor oraliq materiallar saqlanishi uchun alohida xonalar bo'lishi kerak. Ushbu xonalarga begonalar kirishi taqiqlanadi.

44. Agar donor qonini qayta ishlash jarayonida donor qoni tarkibiy qismlarini vaqtincha saqlash zarurati bo'lsa, turli xil tarkibga yoki holatlarga ega bo'lgan qonning tarkibiy qismlarini alohida saqlanishi kerak.

45. Tarqatish uchun tayyor bo'lmagan karantin mahsulotlari alohida muzlatgich va sovutgichlarda saqlanishi kerak. Ushbu karantin mahsulotlari bilan birgalikda tayyor mahsulotlar saqlanishiga yo'l qo'yilmaydi.

46. Tahlil natijalarida foydalanishga yaroqsiz hisoblangan, muddati o'tgan yoki qaytarib olingan qon mahsulotlari uchun maxsus xona ajratilishi kerak. Bu xona qulflangan bo'lishi lozim.

## **7-bob. Qon bilan ishlash xizmati tashkilotlari xodimlarining shaxsiy gigiyenasiga qo'yiladigan talablar**

47. Qon bilan ishlash xizmati tashkilotlarida ishlovchi xodimlar quyidagilarga rioya qilishlari zarur:

ishga kelgach, ustki kiyim va poyafzalni yechishi;

ish boshlashdan avval, sanitariya kiyimi (xalat, qalpoqcha) va maxsus poyafzalini kiyish hamda qo'lni yuvib, dezinfeksiya qilishi;

hojatxonaga kirishdan oldin xalatni yechishi, hojatxonadan chiqqandan so'ng qo'lni yaxshilab yuvishi va dezinfeksiya qilishi;

sanitariya kiyimi va poyafzalida qon bilan ishlash xizmati tashkilotlaridan tashqariga chiqmasligi.

Bunda, xodimlar sanitariya kiyimlari va poyafzalini haftada 2 marta almashtirishi zarur.

48. Donor qonini yig'ish, tayyorlash jarayonini nazorat qilish, qayta ishlash bilan shug'ullanadigan xodimlar tirnoqlarini qisqartirishlari, lak surmasliklari va barmoqlariga uzuk taqmasliklari kerak.

49. Mehnat sharoitlari bilan bog'liq kasalliklarning oldini olish maqsadida xodimlar Xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga (ro'yxat raqami 2387, 2012-yil 29-avgust) asosan dastlabki va davriy majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi zarur.

50. Mazkur sanitariya qoidalarini ishlab chiquvchilar ro'yxati 2-ilovada keltirilgan.

Qon bilan ishlash xizmati tashkilotlariga  
qo'yiladigan sanitariya qoidalari, normalari  
va gigiyena normativlari (0073-24-son  
SanQvaN)ga

1-ILOVA

### Laboratoriyalar tarkibi va maydonlari

T/r	Xonalarning nomlanishi	Xonalar soni	Xonalar maydoni (m <sup>2</sup> )
<b>Donor bo'limi</b>			
<b>Donorlarni qabul qilish va tanlash hududi</b>			
1.	Ro'yxatxona donorlar kutish zali bilan	1	12
2.	Anketa hududi	1	12
3.	Terapevt xonasi	1	12
4.	Bo'lim mudiri xonasi	1	10
5.	Bufet	1	12
6.	Garderoab	1	4
7.	Hojatxona	2	3
8.	Ko'chma qon tayyorlash guruhi dam olish xonasi	1	10
9.	Ko'chma qon tayyorlash guruhi buyumlarini saqlash xonasi	1	8
10.	Xodimlar xonasi dush bilan birga	2	1 ta xonaga 12+4
<b>Donorlarni birlamchi laborator tekshirish hududi</b>			
11.	Donorlardan gemoglobin va qon guruhiga qon olish xonasi	1	12
12.	Donorlardan tekshirish uchun namuna olish xonasi	1	12
<b>Donorlardan qon tayyorlash hududi</b>			
13.	Qon olish zali	1 (xonada kamida 4 kreslo bo'lishi lozim)	1 kreslo - 6 m <sup>2</sup> .
14.	Plazmaferez va apparatli trombositoferez muolajasi o'tkaziladigan zona	1 (xonada kamida 3 kreslo bo'lishi lozim)	1 kreslo - 6 m <sup>2</sup> .
<b>Qon tayyorlash va qayta ishlash bo'limi</b>			
<b>Qonni qayta ishlash zali</b>			
15.	Donor qoni va uning tarkibiy qismlarini qabul qilish, ro'yxatga olish va vaqtincha saqlash xonasi	1	18
16.	Donor qoni tarkibiy qismlarini etiketkalash va berish xonasi	2	12
<b>Jihozlar zali</b>			
17.	Sentrifugalash zali	1	3 ta sentrifugaga 12
18.	Plazmani tez muzlatish zonasi	1	10
19.	Donor qoni tarkibiy qismlariga ajratish zonasi	2	10
20.	Donor qoni tarkibiy qismlarini ikkilamchi qayta ishlash zonasi (toza zona)	1	10
<b>Donor qoni tarkibiy qismlarini nurlantirish zali</b>			

21.	Donor qoni tarkibiy qismlarini ro'yxatga olish xonasi	1	10
22.	Donor qoni tarkibiy qismlarini nurlantirish xonasi	1	28
<b>Donor qoni tarkibiy qismlarini uzoq muddatda saqlash zali</b>			
23.	Sovutgich kameralari xonasi	1	12
<b>Qonni qayta ishlash bo'limining yordamchi xonalari</b>			
24.	Bo'lim mudiri va xodimlar xonasi	1	10
25.	Hojatxona	1	3
26.	Yuvinish xonasi	1	3
27.	Tibbiy chiqindilarni vaqtincha saqlash xonasi	1	4
<b>Donor qoni tarkibiy qismlarini, preparatlarini tarqatish va zahiralarni markaziy boshqarish bo'limi</b>			
28.	Qon va qon preparatlarini saqlash va tarqatish zali	1	24
29.	Bo'lim mudiri xonasi va xodimlar xonasi	1	10
30.	Navbatchi xonasi	1	8
<b>Laboratoriya xonalari</b>			
<b>Klinik-biokimyo laboratoriya</b>			
31.	Qon namunalarini qabul qilish va ro'yxatga olish zonasi	1	10
32.	Sentrifugalash zonasi	1	10
33.	Qonni klinik va bioximik tekshirish xonasi	1	12
34.	Bezgakni tekshirish zonasi	1	10
<b>Klinika- biokimyo laboratoriyasining yordamchi xonalari</b>			
35.	Bo'lim mudiri va xodimlar xonasi	1	10
36.	Hojatxona	1	3
37.	Yuvinish xonasi	1	3
<b>Gemotransmissiv infeksiyalar diagnostik laboratoriyasi</b>			
38.	Qon namunalarini qabul qilish va ro'yxatga olish xonasi	1	10
39.	Qonni izoserologik tekshirish zali (IFA/IXLA)	1	12
40.	PZR zali (aniq vaqtda tekshirish xonasi)	2	15
41.	Reagentlarni saqlash zonasi	1	10
42.	Laboratoriya anjomlarini yuvish xonasi	1	10
<b>Gemotransmissiv infeksiyalar diagnostik laboratoriyasining yordamchi xonalari</b>			
43.	Bo'lim mudiri xonasi	1	10
44.	Xodimlar xonasi	1	10
45.	Hojatxona	1	3
46.	Yuvinish xonasi	1	3
<b>Immunologik laboratoriya</b>			
47.	Qon namunalarini qabul qilish va ro'yxatga olish zonasi	1	10
48.	Izoserologik tekshiruvlar o'tkazish zonasi	1	15
49.	Standart zardoblar tayyorlash zonasi	1	15
50.	Donorlarni immunizatsiya xonasi	1	12
<b>Immunologik laboratoriyaning yordamchi xonalari</b>			
51.	Bo'lim mudiri va xodimlar xonasi	1	10
52.	Hojatxona	1	3
53.	Yuvinish xonasi	1	3
54.	O'quv xonasi	1	10
<b>Bakteriologik laboratoriya</b>			
55.	Namunalarni qabul qilish va ro'yxatga olish xonasi	1	10
56.	Avtoklav xonasi	1	15
57.	Serologik tekshiruvlar	1	20
58.	Ozuqa muhitlar tayyorlash xonasi	1	16

59.	Tarkibiy qismlar va preparatlarni ekish xonasi (toza zona)	1	8
<b>Bakteriologik laboratoriyaning yordamchi xonalari</b>			
60.	Bo'lim mudiri xonasi	1	10
61.	Xodimlar xonasi	1	10
62.	Hojatxona	1	3
63.	Yuvish xonasi	1	3
<b>Material, eritmalarni tayyorlash va sterilash bo'limi</b>			
64.	Nosteril materiallarni qabul qilish va saqlash xonasi	1	8
65.	Tibbiy materiallarni yuvish va quritish xonasi	1	8
66.	Qadoqlash xonasi	1	8
67.	Sterilizatsiya xonasi*	1	1 ta avtoklavga 9, lekin 12 dan kam emas
68.	Sterillangan tibbiy materiallarni tarqatish xonasi	1	8
69.	Xodimlar xonasi	1	10
70.	Yig'ishtirish anjomlarini saqlash xonasi	1	4
71.	Sanuzel shlyuz va qo'l yuvish uskunasi bilan	1	4
<b>Vivariy</b>			
72.	Bo'lim mudiri xonasi	1	10
73.	Karantin xonasi	1	6
74.	Sichqonlar saqlanadigan xona	1	8
75.	Quyionlar saqlanadigan xona	1	10
76.	Operatsiyadan oldingi xona	1	10
77.	Operatsiya xonasi	1	10
78.	Morg	1	6
79.	Dam olish xonasi	1	10
80.	Xojatxona, yuvinish xonasi	1	6
<b>Donor qoni tarkibiy qismlarini preparatlarga ajratish bo'limi (albumin, immunoglobulinlar)</b>			
81.	Xomashyoni ro'yxatga olish xonasi	1	12
82.	Plazma saqlash uchun muzlatgichlar zonasi	1	44
83.	Plazmani fraksiyalash xonasi	1	59
84.	Preparatlarni eritmasini filtratsiyasi qilish zonasi	1	10
85.	Yuvish xonasi va sanuzellar	1	10
86.	Distillyator xonasi	1	4
87.	Preparatlarni sublimatsiya qilish va muzlatish xonasi	1	40
88.	Avtoklav va postrizasiya xonasi	1	12
89.	Preparatlarni flakonlarga quyish boksi va boks oldi xonasi bilan	1	10+4

<b>Donor qoni tarkibiy qismlarini preparatlarga ajratish bo'limi (albumin, immunoglobulinlar)</b>			
90.	Bo'lim mudiri xonasi	1	10
91.	Yordamchi xona	1	15
92.	Xodimlar xonasi	1	10
93.	Katta xamshira xonasi	1	10
94.	Omborxona	1	8
95.	Ustaxona	1	15
96.	Ehtiyot qismlari xonasi	1	15
97.	Oshxona	1	15
<b>Ma'muriyat xonalari</b>			



98.	Yuvinish xonasi	1	3
99.	Bosh hamshira xonasi	1	10
100.	Hisobxona	1	12
101.	Xo‘jalik bekasi xonasi	1	8
102.	Omborxonalar	2	10
103.	Direktor o‘rinbosari xonasi	1	12
104.	Majlislar zali	1	24
105.	Arxiv	1	18
106.	Xodimlar xonasi	1	10
107.	Yagona donorlik markazi xonasi**	1	18
108.	EVM operatori xonasi	1	12
109.	Kommutator - aloqa markazi	1	12
110.	O‘rta tibbiy xodimlar xonasi***	1	20
111.	Kichik tibbiy xodimlar xonasi	1	10
112.	Xojatxona va yuvinish xonasi	1	6
113.	Tozalash inventarlarini saqlash xonasi	1	8

*Izoh: \*75 l dan kam bo‘lgan hajmdagi avtoklav uchun — kamida 4 m<sup>2</sup>;*

*\*\* 75 l dan 100 l gacha hajmdagi avtoklav uchun — kamida 6 m<sup>2</sup>;*

*\*\*\* 100 l dan ortiq hajmdagi avtoklav uchun — kamida 9 m<sup>2</sup>.*

Qon bilan ishlash xizmati tashkilotlariga  
qo'yiladigan sanitariya qoidalari, normalari  
va gigiyena normativlari (0073-24-son  
SanQvaN)ga

2-ILOVA

<b>Ishlab chiquvchilar ro'yxati:</b>	
<b>Saidov A.B.</b>	Respublika qon quyish markazi direktori, t.f.d.
<b>Ismailova Z. A.</b>	Respublika qon quyish markazi bo'lim boshlig'i, t.f.n., gematolog-transfuziolog
<b>Saydiganiyeva L. Sh.</b>	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemilogik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining Sanitariya-gigiyena boshqarmasi bosh mutaxassisi
<b>Raxmatov S. S.</b>	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemilogik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining Sanitariya-gigiyena boshqarmasi yetakchi mutaxassisi
<b>Nosirova A.R.</b>	Sanitariya, gigiyena va kasbiy kasalliklar ilmiy-tadqiqot instituti ovqatlanish gigiyenasi laboratoriyalari katta ilmiy xodimi, PhD
<b>Tillayeva Sht. O.</b>	Sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari ilmiy-tadqiqot instituti, Gigiyenada tibbiy-biologik tadqiqotlar laboratoriyasi katta ilmiy xodimi
<b>Taqrizchilar ro'yxati:</b>	
<b>Atabekov N. S.</b>	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemilogik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari, t.f.d., professor
<b>Sadikov A.U.</b>	Sanitariya-gigiyena va kasb kasalliklari ilmiy tadqiqot instituti, Gigiyenada tibbiy-biologik tadqiqotlar laboratoriyasi mudiri, t.f.d., professor
<b>Maxmudova M.R.</b>	"Haemalogic" MChJ bosh vrachi, t.f.d.